

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARIDA
REFLEKSIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

Vapayeva Fazilat Shuhratovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, refleksiv ko'nikmalar, o'quvchilarning refleksiv faoliyati, refleksiv yondashuv, ob'ektiv yondashuv, boshlang'ich tushunchalari.

Аннотация: В статье представлена информация о процессах формирования рефлексивных умений у учащихся общеобразовательных учреждений.

Ключевые слова: студенты, рефлексивные способности, рефлексивная деятельность студентов, рефлексивный подход, предметный подход, исходные понятия.

Abstract: The article provides information on the processes of forming reflexive skills in students of general secondary educational institutions.

Key words: students, reflexive skills, reflexive activity of students, reflexive approach, objective approach, initial concepts.

KIRISH

2015 yil 12 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqida yoshlarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirishning zaruriyati haqida: «Unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni tarix saboqlari bilan, tarix haqiqati bilan qurollantirish lozim. Maktablarimizda, litsey va kollejarimizda, oliy o'quv yurtlarimizda ayni shu mavzularni xolis va haqqoniy yoritib berishga yanada ko'proq e'tibor qaratishimiz kerak», - deb aytgan fikrlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini tarix saboqlari va tarixiy haqiqatlar bilan izchil va muntazam tanishtirib borish asosida ularda o'tmishimiz haqida ob'ektiv xulosalar shakllantirish zaruriyatini ifodalaydifodalaydi.[1]

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini tarix saboqlari va tarixiy haqiqatlar bilan izchil tanishtirish ularda o'tmishimiz haqidagi ob'ektiv tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Ya'ni yoshlarda mustaqillikkacha bo'lgan davrlarda xalqimizning qadriqimmati, shani va nomusi poymol qilingani, milliy urf-odatlar va qadriyatlar toptalgani, shuningdek, dini, tili va tarixini kamsitilgani va ularni unutishga majbur etilganligi to'g'risida tasavvur shakllanadi.

Shuningdek, yaqin o'tmishimizni o'rganish, tahlil qilish va ob'ektiv baholash

asosida mamlakatimiz mustaqilligining mazmun-mohiyati hamda uning ahamiyati va zaruriyati bo'yicha dunyoqarashlarini rivojlantirish asosida ularda reflektiv ko'nikmalarni shakllantiriladi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda keltirilishicha, reflektiv ko'nikma xulq-atvorning mohiyatini aniqlashga yordam beradi va fikrlashning shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan komponentlari bilan qo'shib, samarali vaziyatlarni hal qilish chog'ida etakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Refleksiya fikrlash jarayonida hamda xulq-atvorda bajaradigan funktsiyalarning xilma-xilligi hamda xulq-atvorni va harakatlarni tartibga solishda o'ynaydigan rolning ahamiyati refleksiyaning ta'lim jarayonlarining juda kerakli unsuri deb hisoblashga asos bo'ladi [2].

Mazkur jarayonlarda qo'llaniladigan metodlar va yondashuvlarning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra to'g'ri tanlash, o'quvchilarga o'rgatiladigan tushunchalar ko'lamini va mazmun-mohiyatiga ko'ra ularning boshlang'ich tushunchalari va imkoniyatlariga mos kelishi hamda ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi zarur.

Mazkur pedagogik shartlar, o'z navbatida, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonlarida ularga mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati, qudrati va salohiyatini, shuningdek, uning zaruriyatini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar, fan-texnika yutuqlari, iqtisodiy rivojlanishlar asosida tushuntirish o'ziga xos ilmiyamaliy ahamiyat kasb etishini ifodalaydi.

Chunki ular bugungi kunda Prezidentimiz va davlatimiz tomonidan yoshlarga qaratilayotgan e'tiborning qadriga etishi va uni ob'ektiv baholashi, mustaqillikning zaruriyatini to'g'ri va haqqoniy anglab etishi hamda kelajakka ishonch hosil qilishi zarur hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni tahliliy fikrlashga o'rgatish va shu asosda reflektiv faoliyatini tashkil etish zarur, chunki ko'proq tahliliy fikrlash o'quvchining o'zi tomonidan yangi tushunchalarni mustaqil ravishda o'zlashtirish jarayonlarida, ya'ni o'quvchiga o'qituvchi tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonlarida vujudga keladi. O'rganilayotgan yangi tushunchalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda tahlil qilish jarayonlari ularning reflektiv faoliyati jarayonlari hisoblanadi. [3]

O'quvchilarning reflektiv faoliyati jarayonlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishda reflektiv yondashuv muhim ahamiyatga ega. Reflektiv yondashuv o'quvchilarni o'tmishga murojaat qilishga undaydi va tariximizni o'rganib, yaqin o'tmishga xalqimiz, millatimiz boshiga qanday mash'um kulfat, tahlika solinganligini

his etishga va mamlakatimiz mustaqilligini yanada chuqurroq va teranroq anglashga olib keladi.

Demak, refleksiv yondashuv o'quvchilarni o'zini-o'zi tahlil qilishga, o'z tushunchalari, faoliyati va faolligini ob'ektiv baholashga undash bilan bir qatorda, ularni tarixni o'rganish, mamlakatimiz mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davrlardagi shart-sharoitlar hamda ota-bobolarimizning tarixiy hayot tarzini o'rganish, tahlil qilish va ob'ektiv baholashga undovchi vaziyatlarni vujudga keltiradi. Demak, refleksiv yondashuv o'quvchilarni o'zini-o'zi va o'z xatti-harakatlarini o'zi tomonidan tahlil qilish va ob'ektiv baholashga o'rgatish bilan bir qatorda, ma'lum bir tushuncha to'g'risida tasavvur hosil qilishga, ya'ni o'rganilayotgan tushunchalarning ahamiyatini o'rganish, tahlil qilish va ob'ektiv baholash asosida ularda asoslangan tushunchalar shakllantirish yoki o'tmishdagi munosabatlarni o'rganish, tahlil qilish va ob'ektiv baholash asosida o'z tarixiy o'tmishimizni o'rganishga qiziqish shakllantirishga xizmat qiladi. [4]

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan refleksiv ta'limiy muhit o'quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga ijodiy ta'sir ko'rsatuvchi muhit sifatida xizmat qiladi. Chunki refleksiv yondashuv jarayonida o'quvchilar o'rganilayotgan mavzularning mazmun-mohiyati hamda o'tmishdagi va bugungi kundagi ahamiyatini mustaqil ravishda tahlil qilish va ob'ektiv baholash asosida xulosa chiqaradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda refleksiv yondashuv o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli xil omillar bilan o'zaro aloqaga kirishadi, bunda xatti-harakatlarning mazmun va mohiyati, maqsadga yo'naltirilgan o'zgartiruvchi faoliyatning ehtiyojini anglash mumkin bo'ladi, chunki o'zini-o'zi chuqur anglab etish natijasida o'z o'rnini aniqlash, o'zligini isbotlash, o'zini-o'zi (harakatlarini, fe'l-atvorini) ma'qullash, o'zining ichki imkoniyatlaridan, qobiliyatidan foydalanish, o'zini-o'zi boshqarish vujudga keladi.

XULOSA

Shunday ekan, o'quvchilarning o'quv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va muvofiqlashtirish samaradorligini ta'minlash ularning refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida ichki dunyosi, tafakkuri, dunyoqarashining rivojlanishini, ya'ni mazkur jarayonning natijaviyligi hisoblangan o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining o'ziga xos jihatlarini o'rganishni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishi.
2. Ahlidinov R.Sh. Sotsialno-pedagogicheskie osnovы upravleniya kachestvom obщego srednego obrazovaniya: Avtoref. Dis. ... d-ra ped. Nauk. – Tashkent,

2002. – 44 s.

3. Ahmedova N.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish.: F.d. ... diss. – Toshkent, 2016. – 176 b. 4. Xakimova Dildora Mashrabjonovna umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonlarini tashkil etish 13.00.07 – Ta'lim menejmenti (pedagogika fanlari) Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya